BUDJET SIYOSATI VA DAVLAT MOLIYASI BARQARORLIGI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	1154
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
RESTORAN XIZMATLARI SOHASIDA REJALASHTIRILGAN ISTE‘MOL XULQ-ATVORI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	1159
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
MASHINASOZLIK KORHONALARIDA RAQAMLI EGIZAKLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	1163
Yusupov Azamat Alijonovich	
SUN‘IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARNING PERSONALNI BOSHQARISHDAGI O‘RNI VA SAMARADORLIGI	1168
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
MOLIYAVIY HISOBOTDA FIRIBGARLIK VA XATOLARNI ANIQLASH MASALALARI	1173
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR FAOLIYATI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA‘MINLASHNING OSIYO MAMLAKATLARI TAJRIBALARI.....	1178
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	



XALQARO TAJRIBA ASOSIDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1183
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI ORQALI KREDIT RISKLARNI BOSHQARISH.....	1187
Anvarov Asliddin Nabijon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIVAVIY NAZORATNING AHAMIYATI	1191
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK– DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH	1195
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ АО «УЗБЕКНЕФТЕГАЗ» ПО ВНЕДРЕНИЮ МСФО 15 НА КОНТРАКТЫ С ПОКУПАТЕЛЯМИ	1201
Тошпулатова Мунисабону Иброхим кизи	
BUXORO VILOYATI AGROSANOAT SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNING JORIY ETISH HOLATI, HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	1209
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINI SUG'URTA XIZMATLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	1216
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
BANK SEKTORI RIVOJLANISHIDA MARKETING INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	1223
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
TURIZM BOSHQARUVIDA RAQAMLI TIZIMLARI VA ULARNING AMALIYOTDA TADBIQ ETISHDA XORIJ TAJRIBASI	1228
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MILLIY VALYUTADA JALB QILINGAN DEPOZITLARNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1232
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
NAVOIY VILOYATI AGRAR STRUKTURASINING IQTISODIY TAVSIFI	1237
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP IN THE EDUCATION SECTOR.....	1241
Alieva Elnara Ametovna	
FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISHNING NAZARIY-MEZONLARI.....	1250
Shoximardanova Niginabonu Shavkatovna	
ГРАФОАНАЛИТИЧЕСКИЙ РАСЧЁТ И ГЕОМЕТРИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ СИНХРОНИЗАТОРА В БИЦИКЛОВОМ ПЛАНЕТАРНОМ МЕХАНИЗМЕ С РЕВЕРСИРУЮЩИМИСЯ САТЕЛЛИТАМИ.....	1253
Алимов Бахтияр Милибаевич, Абдукайимов Ботиржон Ниязкулович	
HUDUDLARNING INVESTITSION SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI	1258
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	1264
Xujamuratov Abbos Mardonovich	



ISLON BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISH METODOLOGIYASI: XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1270
Voxidov Oybek Roziqovich	
SUG'URTA BOZORIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1275
Fayziyev Oybek Raximovich	
DETERMINANTS OF WAGES IN THE MODERN LABOUR MARKET: A LITERATURE REVIEW.....	1279
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
ЦИФРОВЫЕ ПРОЕКТЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ОТРАСЛИ.....	1288
Каракулов Фарход Зайпудинович	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	1294
Achilov Ilmurad Nematovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING AKADEMIK XAVFLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA MEXANIZMLARINI JORIY ETISH.....	1299
G'aniyev G'olibjon Abdiraxmanovich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA MERCHANDAYZING STANDARTLARINI QO'LLASH MEXANIZMINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI.....	1305
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING INNOVATSION TAHLILI	1314
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
FRANSUZ TILIDA FONO-GRAFOSTILISTIK VOSITALAR: TIPOLOGIYA VA KLASSIFIKATSIYA	1319
Islomov Dilshod Shomurodovich	
PRACTICAL ASPECTS OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN MAHALLAS	1324
Gafurov Ubaydullo Vakhobovich	
GUDVILL VA XARIDDAN KELGAN FOYDANI MHXS ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING ILMIY-AMALIY MASALALARI.....	1329
Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug'li	
BANKLARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGI	1336
Xabibulloxoji Muhammadsolih Alisher o'g'li	
MARKETING AS A DECISIVE ELEMENT IN THE SUCCESSFUL INTRODUCTION OF INNOVATIVE PRODUCTS TO THE MARKET.....	1343
Davlyatova Gulnara	
KORXONALARDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	1348
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA MARKETING VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY TAMOIYILLARI	1353
Djurayev Bekzod Bekmatovich	
"O'ZBEKNEFTGAZ" AJNING IQTISODIY BARQARORLIGI VA FAOLIYATINING RIVOJLANISHI	1359
Salomova Sarvinoz Salimovna	



BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA AYLANMA IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA CHIQINDISIZ ISHLAB CHIQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1364
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR VA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK SAMARADORLIGI	1370
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTR VA MAISHIY TEXNIKA ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH	1377
Sonaev Sanjar Nurmamatovich	
MAJBURIYATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHDA HISOB SIYOSATINING AMALIY AHAMIYATI	1382
Uzoqova Feruza Baraka qizi	
IJTIMOIIY-IQTISODIY BARQARORLIK VA "OVERTURIZM" OMILLARI KONTEKSTIDA HUDUDIIY TURISTIK DESTINATSIYALAR ISTIQBOLLARINI BAHOLASH	1387
Isrofilov Firdavs Ibrohim o'g'li	
RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLAR ROLI	1394
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
BOSHQARUV HISOBIDA BUDJETLASHTIRISH VA UNGA OID YONDASHUVLAR	1397
B.Yu.Maxsudov	
KICHIK VA O'RTA KORXONALARNING HAYOT BOSQICHLARI TAHLILI ASOSIDA AUDIT O'TKAZISH USLUBIYOTINING USTUNLIK VA KAMCHILIKLARI	1402
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
TURIZM SOHASINI INVESTITSIYALASHDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1408
Temurbek Olimovich Mamayunusov	
ГИДРОДИНАМИЧЕСКИЕ И РЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДВИЖЕНИЯ ТЕКУЧИХ СРЕД С УЧЁТОМ УСКОРЕНИЯ ДЕФОРМАЦИИ	1415
Мирзоев Акмал Ахадович, Ахмадов Илхом Актамович	
O'ZBEKISTON YAIMINING UZOQ MUDDATLI RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYALAR, AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI (AKT) VA TASHQI SAVDONING TA'SIRI: KOINTEGRATSIYA TAHLILI	1423
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
РАЗРАБОТКА КЛАССИФИКАЦИОННОЙ СХЕМЫ КОМПОНЕНТОВ КЕРАМИЧЕСКИХ ФЛЮСОВ И МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ФОРМИРОВАНИЯ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА МЕТАЛЛА ШВА ПРИ АВТОМАТИЧЕСКОЙ ДУГОВОЙ СВАРКЕ	1431
Эрматов Зиядулла Досматович	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XALQARO BOSHQARUVNI JORIY ETISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	1437
Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich	
INTERNATIONALIZATION AS A TOOL FOR INSTITUTIONAL DEVELOPMENT IN EMERGING HIGHER EDUCATION SYSTEMS	1442
Yunusova Shirin Adxamovna	
NEFT-GAZ SANOATINING GLOBAL ENERGETIKA BOZORIDAGI STRATEGIK VA IQTISODIY ROLI	1448
Salomova Sarvinoz Salimovna	



BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISHNING XUSUSIYATLARI	1453
---	------

Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich



BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISHNING XUSUSIYATLARI

Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich

TDIU "Buxgalteriya hisobi" kafedrası dotsenti, DSc

saidakbarovxusniddin794@gmail.com

[ORCID: 0009-0000-1277-3877](https://orcid.org/0009-0000-1277-3877)

Annotatsiya. Mazkur maqolada budjet tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishda ichki nazorat tizimining zarurligi va ahamiyati nazariy jihatdan asoslangan. Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil etish va amalga oshirishning asoslari yoritilgan. Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini yo'lga qo'yishning normativ huquqiy asoslari keltirilgan. Budjet tashkilotlari faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib ichki nazorat tizimining amaldagi holati tadqiq qilingan. Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil etishni takomillashtirish yuzasidan takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, ichki nazorat, mablag'lar, moliyalashtirish, nazorat muhiti, hisobot.

Abstract. In this article, the need and importance of the internal control system in the implementation of the activities of budget organizations is theoretically based. Basics of organization and implementation of internal control system in budget organizations are explained. Normative and legal bases for establishment of internal control system in budget organizations are presented. Based on the characteristics of budget organizations, the current state of the internal control system was studied. Proposals for improving the organization of the internal control system in budget organizations are presented.

Keywords: accounting, internal control, funds, financing, control environment, reporting.

Аннотация. В данной статье теоретически обоснована необходимость и значение системы внутреннего контроля при осуществлении деятельности бюджетных организаций. Изложены основы организаци и внедрения системы внутреннего контроля в бюджетных организациях. Представлены нормативно-правовые основы создания системы внутреннего контроля в бюджетных организациях. На основе характеристики бюджетных организаций изучено современное состояние системы внутреннего контроля. Представлены предложения по совершенствованию организаци системы внутреннего контроля в бюджетных организациях.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, внутренний контроль, фонды, финансирование, контрольная среда, отчетность.

KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz davlat budjeti barqarorligini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, budjet ijrosiga oid axborotlarning ochiqqligini ta'minlash, budjet mablag'lari taqsimlovchi organlar va budjet tashkilotlarining hisobdorligini oshirish, davlat moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirish, budjet ijrosi jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar va axborot tizimlaridan foydalanish orqali ortiqcha sarf xarajatlarning oldini olish yuzasidan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga alohida ahamiyat qaratildi. O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" Strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni bilan "Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish maqsadida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyoti"[1]ni joriy qilish vazifasi qo'yilgan. Bunda, har bir faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqib, budjet tashkilotlarida nafaqat budjet mablag'lari, balki budjetdan tashqari mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish orqali tashkilotlarning funksional vazifalarini bajarish orqali davlatning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'uliyatini to'la ado etish bosh maqsadlardan sanaladi.

Budjet tashkilotlari faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqib, ta'lim, sog'liqlini saqlash, madaniyat, sport, davlat boshqaruv organlari va shu kabi boshqa faoliyatlarni amalga oshirishda oqilona rejalashtirilgan holda uzluksiz mablag'lar bilan ta'minlash, mablag'larni belgilangan maqsadlar uchun yo'naltirish tashkilotlarning faoliyat samaradorligiga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda budjet tashkilotlarining nafaqat, faoliyatlari samaradorligini ta'minlash, balki, mablag'larning maqsadli sarflanishini tashkil etish ichki nazorat tizimini to'g'ri tashkil qilish va amalga oshirish bilan uzviy bog'liq sanaladi.

Bu o'z navbatida, budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil qilish zaruriyatini belgilab beradi. Shu bilan birga, budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimining nazariy va huquqiy asoslarini o'rganish, amaldagi holatini tizimli tahlil qilish, mavjud munozarali holatlarni o'rganish va ularning yechimini shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish borasida xorijlik hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan izlanishlar olib borilgan. Xalqaro amaliyotda budjet tashkilotlari davlat sektoriga qarashli bo'lganligi sababli, ularni boshqarish va nazorat qilishda ichki nazorat tizimining talab darajasida yo'lga qo'yilishi tashkilotlar faoliyati samaradorligini ta'minlash hamda mablag'larning manzilli sarflanishining asosiy sharti sifatida qoraladi.

Jumladan xorijlik olimlardan Mohamad Azizal bin Abd Aziz, Jamaliah Said, Mahmudul Alam tomonidan Malayziya davlat sektori tashkilotlarida ichki nazorat tizimi va uni baholash amaliyoti tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqot 24 federal vazirlik qoshidagi 109 departament va agentlik bo'limlari, shu jumladan Malayziyadagi Bosh vazir departamenti o'rtasida so'rovnomalar to'plami asosida birlamchi ma'lumotlarni to'planib ichki nazorat amaliyotining o'n omili haqidagi fikrga asoslanib omillar tahlil tahlil qilingan. Natijada, moliya organlari guruhining ichki nazorat tizimi kuchli, muhandislik, axborot tizimi, ta'lim, tibbiyot va sog'liqni saqlash tizimidagi ichki nazorat umumiy o'rtacha ko'rsatkichda baholangan. Malayziyadagi davlat sektori ishonchli va samarali sektorga aylanishi uchun ichki nazoratni tashkil qilish va uni to'g'ri baholash bo'yicha takliflar shakllantirilgan[2].

Hung Tang Tri va Thien Huu Nguyen tomonidan tashkilotlarda buxgalteriya hisobi axborot tizimi bilan ichki nazorat tizimining o'zaro bog'liqligi borasida izlanish olib borishgan. Bunda, ichki nazorat tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish buxgalteriya axborot tizimining to'g'ri ishlashiga xizmat qilishi, shuningdek, buxgalteriya axborot tizimining samarali ishlashi ichki nazorat tizimini boshqarishga olib kelishi asoslab berilgan. Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlarining uzviy bog'liqligi masalalari yoritilgan[3].

Vakhtang Nadiradze davlat sektorida ichki moliyaviy nazorat tizimini joriy etish borasida tadqiqot olib borgan. Davlat sektorida budjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanishi uchun ichki moliyaviy nazorat tizimini isloh qilishning zarurligi asoslangan. Davlat sektorida ichki auditning xalqaro me'yoriy hujjatlari va me'yoriy me'yorlari, ichki nazorat tizimini joriy etishda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari amaliyoti ko'rib chiqilib, ushbu tajribalardan foydalanish yuzasidan tavsiyalar berilgan[4].

Salomi Jacomina Hehanussa buxgalteriya hisobi axborot tizimlarida ichki nazoratning roli haqida izlanish olib borgan: buxgalteriya axborot tizimlaridan foydalanish boshqaruv organi xodimlari nazoratisiz tashkilot muvaffaqiyatli ishlay oladimi yoki yo'qligi masalasiga aniqlik kiritish uchun ichki nazorat tizimining oltita muhim rolini aniqlagan. Kompyuterga asoslangan buxgalteriya hisobining axborot tizimlariga katta ta'sir ko'rsatishi kuzatilgan. Ichki nazorat tizimlari tashkilotdagi ortiqcha resurslarning oldini olishi, moliyaviy hisobotlar bilan bog'liq hisobdorlikni oshirish, tashkilotning faoliyatiga oid axborotlarning ishonchligi va sifatini oshirishi, boshqaruv qarorlar qabul qilish va firibgarlikning oldini olish uchun osonlashishi asoslangan[5].

Z.U.Xamidova budjet tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish borasidagi izlanishlarida budjet tashkilotlarida ichki audit va ichki nazoratni tashkil etilishi hamda nazoratning amalga oshirilishi, ichki audit va ichki nazoratning o'zaro bog'liq va farqli jihatlari asoslab berilgan. Ichki audit xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqa davlat organlari bilan hamkorligini ta'minlash hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati faoliyatini takomillashtirish[6] yuzasidan takliflar bergan.

B.K.Xamdov va A.A.Ostonokulov tomonidan budjet tizimi budjetlarida budjet nazoratini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, nazorat ob'ektlari va ularning tarkibi, nazorat usullari va shakllari, budjet nazoratini amalga oshirish bosqichlari, nazorat natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirishni tizimlashtirilgan[7] holda ifodalab berishgan.

Sh.Qurbonov tomonidan davlat tibbiyot tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar ichki auditini takomillashtirish masalalari ilmiy tadqiq qilingan. Tadqiqotchi tibbiyot tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha ichki audit tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirishga xizmat qiluvchi audit dasturi va rejasi[8]ni taklif etgan.



Mazkur izlanishlarda olimlar tomonidan budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, nazorat va audit masalalari umumiy holda o'rganilgan. Ayrim hollarda ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha takliflar berilgan. Ammo, avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Budget tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil qilish mavzusi doirasidagi izlanishlarda kuzatish, qiyoslash, analiz va sintez, deduksiya va induksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, guruhlashtirish, manbalarni sharhlash, tizimli yondashuv kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Budget tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishda tashkilotning O'zbekistan Respublikasining amaldagi qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, tegishli vazirlikning buyruqlari hamda faoliyatga oid boshqa normativ huquqiy-hujjatlarning amaldagi ijrosini ta'minlash va ularga oid hisobdorlikni amalga oshirish ichki nazorat ning bosh maqsadi sanaladi. Budget tashkilotlarida ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tegishli vazifalarni hal etish uchun mas'ul bo'linmalar va shaxslar belgilab olinadi.

Ichki nazorat – budget tashkiloti faoliyat maqsadlariga asoslangan va maqsadga yetarli darajada erishish, tashkilot bo'linmalari faoliyatining faoliyat samaradorligi yoki unumdorligi, shu jumladan, mablag'lardan foydalanish samaradorligi darajasi va aktivlarni saqlash, moliyaviy hisobotlarning ishonchiligi va to'g'riligi, tashkilot faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va huquq me'yorlariga muvofiqligi tamoyillarga mosligini tasdiqlash, bo'linmalar faoliyatiga biriktirilgan vazifalar va ularni amalga oshirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni boshqarish, nazorat va boshqaruv jarayonlari samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan uzluksiz amal qiluvchi jarayondan iborat (1-rasm).



1-rasm. Budget tashkilotlarida ichki nazorat tizimida amal qiluvchi tamoyillar¹

Ichki nazorat tizimi budget tashkiloti bo'linmalarida moliya-iqtisod, ijro intizomi, ishlar boshqarmasi, buxgalteriya hisobi, yuridik va ichki nazorat bo'limi hamda boshqa barcha darajadagi va barcha funksiyalar bo'yicha xodimlar tomonidan tashkil qilingan va amalga oshiriladigan ichki hujjatlar bilan qat'iy belgilangan ichki nazoratning tashkiliy tuzilmasi, nazorat qiluvchi chora-tadbirlari va usullari majmuidan iborat.

Ichki nazorat tadbirlari budget tashkilotlari bo'linmalari moliya-iqtisod, ijro intizomi, ishlar boshqarmasi, buxgalteriya hisobi, yuridik va ichki nazorat bo'limi, boshqaruv xodimlari, shuningdek, ichki nazoratni amalga oshirish vakolati berilgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan hamda moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonunlar hamda budget tashkilotining ichki hujjatlari talablari buzilishlarini aniqlashga, bo'linmalar tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish samaradorligini, shuningdek, ichki nazorat tadbirlarini amalga oshirish jarayonida ichki nazorat sub'ektlarining o'zaro hamkorligini baholashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidan iborat[9].

Budget tashkilotlarida ichki nazorat tizimi quyidagi tamoyillar asosida tashkil qilinadi:

uzluksiz faoliyat olib borish - ichki nazorat tizimining doimiy va tegishli faoliyat yuritishi budget, smeta va shtatlar hamda xarajatlar me'yorida har qanday chetga chiqishlar (og'ishlar)ni o'z vaqtida aniqlash va kelgusida ular yuzaga kelishining oldini olish imkonini beradi;

¹ Muallif tomonidan shakllantirilgan

ichki nazorat tizimi barcha ishtirokchilarining hisobdordligi - har bir shaxs tomonidan nazorat funksiyalarining bajarilish sifati ichki nazorat tizimining boshqa ishtirokchisi tomonidan nazorat qilib boriladi;

vazifalar taqsimlanishi – budget tashkiloti bo'linmalari nazorat funksiyalari bir-birini takrorlashiga yo'l qo'yilmasligiga va ushbu funksiyalar xodimlar o'rtasida muayyan aktivlar bilan operatsiyalarni tasdiqlash, operatsiyalarni hisobga olish, aktivlarning to'g'ri saqlanishini ta'minlash va ular inventarizatsiyasini o'tkazish bilan bog'liq funksiyalarning bir shaxsning o'zi tomonidan bajarilmaydigan tarzda taqsimlanishiga intiladi;

operatsiyalarning tegishlicha ma'qullanishi va tasdiqlanishi – tashkilot va uning bo'linmalarida vakolatli shaxslar tomonidan ularning taalluqli vakolatlari doirasida barcha moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari tasdiqlanishi tartibini belgilashga intiladi;

tashkilot va uning bo'linmalarining kundalik ichki nazoratini amalga oshiradigan, bo'linmalarining o'zaro tashkiliy bog'liqligini va uning bevosita tashkilot raxbarlariga funksional hisobdordligini ta'minlash;

tashkilotda ishlaydigan barcha ichki nazorat subyektlarining nazorat funksiyalarining tegishlicha bajarilishi uchun javobgarligi;

tashkilotda barcha bo'linmalarining o'zaro aniq hamkorligi asosida ichki nazoratni amalga oshirish;

doimiy rivojlanish va takomillashish – budget tashkiloti ichki nazorat tizimining yangi vazifalarni hal qilish zarurati hisobga olingan holda moslashuvchan bo'lishi, tizimning o'zini kengaytirish va takomillashtirish uchun shart - sharoitlarni ta'minlashga intiladi;

moliyaviy rejalar va istiqbolli prognozlar nisbatan chetga chiqishlar (og'ishlar) to'g'risidagi habarlarning o'z vaqtida uzatilishi - tashkilot va uning bo'linmalarida chetga chiqishlar (og'ishlar)ni bartaraf qilish to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolatga ega shaxslarga tegishli habarlar uzatilishining maksimal qisqa muddatlari belgilanadi;

tashkilot va uning bo'linmalari faoliyatining nazorati yo'lga qo'yilayotgan soxalari ustuvorligini belgilash - ichki nazorat tizimi bilan qamrab olinadigan strategik yo'nalishlar ajratib ko'rsatiladi.

Budget tashkilotida ichki nazorat tizimi quyidagi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

bo'linmalar xodimlarining odob-axloq qadriyatlarini va bilimdonliklarini, raxbarlik siyosatini, raxbariyat tomonidan vakolatlar va javobgarliklarni taqsimlash usuli, tashkil qilish tuzilishi va xodimlar malakalari oshirilishini;

tavakkalchiliklarni baholash - turli darajalarda o'zaro bog'liq va ichki izchil muayyan vazifalarni bajarishga taalluqli tavakkalchiliklarni identifikatsiyalash va tahlil qilishni o'z ichiga oladi;

tashkilot va uning bo'linmalari rahbariyati qarorlarining tegishlicha ijrosini kafolatlaydigan siyosat va tadbirlarni umumlashtiruvchi va ma'qullashlar, jarimalar, tasdiqnomalar berish, tekshiruvlar o'tkazish, joriy faoliyat nazorati, aktivlar xavfsizligi kafolati va vakolatlarni taqsimlash kabi bir qator turli xil harakatlarni o'z ichiga oluvchi nazorat bo'yicha faoliyat;

ma'lumotlarni o'z vaqtida samarali aniqlash, ularni ro'yxatdan o'tkazish va ularni ayirboshlashga yo'naltirilgan, shu jumladan barcha ichki nazorat sub'ektlarida tashkilot va uning bo'linmalarida qabul qilingan ichki nazorat siyosati va tadbirlari tushunchasini shakllantirish va ular ijrosini ta'minlash maqsadida axborot almashinuvi samarali yo'llari tashkil qilinishini o'z ichiga oladigan axborot ta'minoti va axborot almashinuvi bo'yicha faoliyat. Tashkilot va uning bo'linmalari axborotdan ruxsatsiz foydalanishdan himoyalani uchun chora-tadbirlar ko'radi;

monitoring - boshqaruv va nazorat funksiyalarini o'z ichiga oladigan jarayon bo'lib, ushbu jarayon davomida vaqt o'tishi bilan tizimning ishlash sifati baholanadi. Ichki nazorat tizimini baholash moliyaviy hisobotlarning to'g'riligiga ta'sir ko'rsatuvchi xatolar yuzaga kelish ehtimolini aniqlash, ushbu xatolar jiddiyligini aniqlash va ichki nazorat tizimining belgilangan vazifalar bajarilishini ta'minlash imkoniyatini belgilash uchun o'tkaziladi. [10] Ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash uchun tashkilot va uning bo'linmalarida mutaxassislar taklifi asosida mustaqil professional tashkilot - konsultant jalb qilinishi mumkin.

Ichki nazorat moliya-iqtisod, ijro intizomi, ishlar boshqarmasi, buxgalteriya hisobi, yuridik va ichki nazorat bo'limi, boshqaruv xodimlari, shuningdek, tashkilotning barcha darajadagi xodimlari tomonidan ularning amaldagi qonunlar hamda tashkilotning ichki hujjatlari bilan belgilangan vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Budget tashkilotining ichki nazorat tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tashkilotning faoliyat maqsadlariga erishishiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan yashirin va mavjud operativ, moliya, strategik va boshqa tavakkalchiliklarni aniqlash va tahlil qilish;

ichki nazoratning jiddiy tarkibiy qismlarini baholash;

budget ijrosi jarayonlarining ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash;

tashkilot tarkibiy bo'linmalari, mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining ish samaradorligi mezonlarini aniqlash va baholash;

moliyaviy va boshqa ma'lumotlarni oldingi davr uchun taqqoslanadigan axborot yoki kutilayotgan faoliyat natijalari bilan solishtirish orqali ko'rib chiqish;



vokea - hodisalar, operatsiyalar va tranzaksiyalarni hisobga olishning mos usullaridan foydalanish;
 aktivlar to'g'ri saqlanishi va foydalanilishi holatini tekshirish;
 ichki nazorat tadbirlarini tegishli hujjatlashtirish;
 ichki nazorat tizimi sifatini muntazam baholab berish;
 budjet tashkilotining barcha xodimlarini ularning ichki nazorat sohasidagi majburiyatlari to'g'risida habardor qilish;

tashkilot xodimlari o'rtasida muhim vazifalarni taqsimlash (shu jumladan, operatsiyalarni ma'qullash va tasdiqlash, operatsiyalar hisobini yuritish, resurslarni yo'naltirish, saqlash va olish, operatsiyalarni tahlil qilish va tekshirish bo'yicha);

operatsiyalarning faqat taalluqli vakolatlarga ega shaxslar tomonidan tasdiqlanishi va amalga oshirilishi;
 ichki nazorat maqsadlariga erishish uchun kerakli boshqa tadbirlar.

Ichki nazorat tadbirlarini o'tkazishda tekshirish, kuzatish, tasdiqlash, qayta hisoblash usullari, shuningdek ichki nazorat tadbirlarini amalga oshirish uchun kerakli boshqa usullar qo'llaniladi. Ushbu tadbirlar ichki nazorat muxiti bilan uzviy bog'liq bo'lib, bo'linmalarining hisobdorligi va nazorat vositalaridan foydalanish holatiga baho berishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Budjet tashkilotlarining faoliyati samaradorligi bevosita ularni oqilona moliyalashtirish va boshqarish bilan uzviy bog'liq bo'lganligi bois, ularning faoliyatini doimimiy nazorat qilish hamda to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida ichki nazorat tizimining mavjudligi va uni amalga oshirish muhim hisoblanar ekan. Ichki nazorat tizimi bir vaqtning o'zida tashkilot bo'linlari va xodimlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi holati, tashkilotda normativ-huquqiy hujjatlarga amalga qilinishi, belgilangan maqsad va rejalarga erishish natijalari, mablag'larning to'g'ri saqlanishi va maqsadli sarflanishi, bo'linmalarining hisobdorligi, moliyaviy-xo'ajlik faoliyatiga oid axborotlarning ishonchligini ta'minlashning bevosita vositasi sanaladi.

Budjet tashkilotlarining faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqib, amaldagi qonunchilik talablari asosida hisob siyosati ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilsa, ushbu hisob siyosatining to'la-to'kis amalga oshirilishi ichki nazorat tizimining yo'lga qo'yilishi bilan uzviy sanaladi. Shu bois, hisob siyosati va ichki nazorat tizimi bo'yicha ishlab chiqiladigan tartib-qoidalar o'zaro mos bo'lishi zarur.

Bizningcha, budjet tashkilotlarining maqsad va vazifalarining yaxlit holda amalga oshirilishi tashkilotning har bir bo'lim va bo'linmalari, ulardagi xodimlarning o'z vazifalarini bajarishi hamda hisobdorligi, raxbar xodimlarning tarkibiy bo'linmalarga oid axborotlardan foydalanishi, biznes rejalari, shtatlar va smetalar rejalari bajarilishi, smeta-shtat intizomiga amal qilinishi ichki nazorat tizimining to'g'ri tashkil etilishi bilan uzviy bog'liq.

Ichki nazorat tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish va samarali amalga oshirish uchun har bir budjet tashkilotida "Ichki nazorat tizimi to'g'risida nizom" ishlab chiqilishi va unga amal qilinishi zarur. Bunda, ichki nazorat tizimiga kiruvchi sub'ektlar, ularning vakolatlari, hisobdorligi va javobgarligi, nazoratni amalga oshirish vositalari, tamoyillari va usullari, nazoratning davriyligi, axborot almashish tartiblari, nazorat sub'ektlarining hamkorligi va shu kabi boshqa masalalar nizomda o'z aksini topadi. Har bir vazirlik va idoralar tizim tashkilotlari uchun namunaviy ichki nazorat tizimi bo'yicha nizomni shakllantirishi hamda tizim tashkilotlari ushbu nizom asosida o'zining nizomini shakllantirishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" Strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni
2. Mohamad Aziz bin Abd Aziz, Jamaliah Said, Mahmudul Alam. Assessment of the Practices of Internal Control System in the Public Sectors of Malaysia. Asia-Pacific Management Accounting Journal, 2015. Vol. 10(1), pp. 43-62
3. Tang Tri Hung - Nguyen Huu Thien - Nguyen Hieu Trung - Le Thuy Dung. Relationship between accounting information system and internal control system. TÀI CHÍNH CÔNG THƯƠNG. Tháng 8/2017.
4. Vakhtang Nadiradze. (2022). Introduction of Internal Financial Control System in the Public Sector. Scientific Journal „Spectri“, 1. <https://doi.org/10.52340/spectri.2022.18>
5. Salomi Jacomina Hehanussa. The Important Role Of Internal Control In Accounting Information Systems. Vol. 2 No. 6 (2024): Asian Journal of Social and Humanities.
6. Xamidova Z.U. Budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari faoliyatini samarali tashkil qilish masalalari. Monografiya. — T.: "VNESHINVESTPROM", 2021. 183 b.
7. Hamdamov, B. K., & Ostonokulov, A. A. (2018). Budjet nazorati. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-Moliya", —318 b.
8. Qurbonov Sh.M. Davlat tibbiyot tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va ichki auditni takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. — T. 2022. —58 b.
9. Ostonokulov, A. A., & Abduraxmonov, I. (2019). Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini takomillashtirish masalalari. XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali, 1.
10. Kuliboyev A. Sh. Budjet nazoratining nazariy-uslubiy asoslari //World scientific research journal. — 2023. — T. 16. — №. 1. — S. 31-37.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100